



SALIB YURISHLARI VA DASTLABKI RITSARLIK ORDENLARI

Guliston davlat pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi 33-24 guruh

Talabasi Xurramova Sevinch Jamshid qizi

Anotatsiya: Mazkur maqolada XI-XIII asrlarda Yevropa va Yaqin Sharq tarixida muhim o'rin tutgan salib yurishlari hamda ushbu harbiy-diniy harakatlar jarayonida vujudga kelgan dastlabki ritsarlik ordenlarining shakllanishi, faoliyati va tarixiy ahamiyati tahlil etiladi. Shuningdek salib yurishlarining Yevropa jamiyati, feodal munosabatlar, cherkov nufuzi va Sharq-G'arb aloqalariga ko'rsatgan ta'siri manbalar asosida baholanadi. Maqola salib yurishlari va ritsarlik ordenlarini o'rta asrlar tarixining murakkab va ko'p qirrali jarayoni sifatida talqin etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Salib yurishlari, Shimoliy Afrika, Falastin, Suriya, Vizantiya, Kichik Osiyo, Saljuqiylar, O'rta dengiz, Quddus, Rim, Senyor, Klermon, Ritsar, Edessa, Misr, Inokentiy III, Akra, Akko, Turkiya, Antioxiya, Bogemond I, Tripoli, Furot, Kilkiya, Baybars, Levant, Franklar, Tuluza, Boldiun I, Qalaun al-Mansur, Gospitalyerlar, Ioniylar, Tampelyerlar, Tevton, Malta, Gugo, Peyn, Vengriya, Prussiya, Kalatrava ordeni, Aleksandr III, Maviy qa'las, Santyago ordeni, Leon, Kuenka, Ferdinand III, Avliyo Lazer ordeni, Montegandio ordeni, Qilich ordeni, Latviya, Livoniya, Dobriynskiy ordeni, Polsha, Montesa ordeni, Ispaniya

THE CRUSADES AND THE EARLY KNIGHTLY ORDERS

Gulistan State Pedagogical Institute

Field of Study: History, Group 33–24

Student: Khurramova Sevinch Jamshid qizi



Abstract: This article analyzes the Crusades of the 11th–13th centuries, which played a significant role in the history of Europe and the Middle East, as well as the formation process, activities, and historical significance of the early knightly orders that emerged during these military-religious movements. Furthermore, based on historical sources, the article evaluates the impact of the Crusades on European society, feudal relations, the authority of the Church, and East–West relations. The study aims to interpret the Crusades and knightly orders as a complex and multifaceted process in medieval history.

Keywords: Crusades, North Africa, Palestine, Syria, Byzantium, Asia Minor, Seljuks, Mediterranean Sea, Jerusalem, Rome, lord (senior), Clermont, knight, Edessa, Egypt, Innocent III, Acre, Akko, Turkey, Antioch, Bohemond I, Tripoli, Euphrates, Cilicia, Baybars, Levant, Franks, Toulouse, Baldwin I, Qalawun al-Mansur, Hospitallers, Knights Hospitaller, Templars, Teutonic Order, Malta, Hugh de Payens, Hungary, Prussia, Order of Calatrava, Alexander III, Blue Castle, Order of Santiago, León, Cuenca, Ferdinand III, Order of Saint Lazarus, Order of Montjoie (Montegandio), Order of the Sword, Latvia, Livonia, Dobrzyn Order, Poland, Order of Montesa, Spain.

КРЕСТОВЫЕ ПОХОДЫ И ПЕРВЫЕ РЫЦАРСКИЕ ОРДЕНА

Гулистанский государственный педагогический институт

Направление: История, группа 33–24

Студентка Хуррамова Севинч Джамшид кизи

Аннотация: В данной статье анализируются крестовые походы XI–XIII веков, сыгравшие важную роль в истории Европы и Ближнего Востока, а также процесс формирования, деятельность и историческое значение первых рыцарских орденов, возникших в ходе этих военно-религиозных движений.



Кроме того, на основе источников оценивается влияние крестовых походов на европейское общество, феодальные отношения, авторитет церкви и связи между Востоком и Западом. Статья направлена на интерпретацию крестовых походов и рыцарских орденов как сложного и многогранного процесса средневековой истории.

Ключевые слова: Крестовые походы, Северная Африка, Палестина, Сирия, Византия, Малая Азия, Сельджуки, Средиземное море, Иерусалим, Рим, сеньор, Клермон, рыцарь, Эдесса, Египет, Иннокентий III, Акра, Акко, Турция, Антиохия, Боэмунд I, Триполи, Евфрат, Киликия, Бейбарс, Левант, франки, Тулуза, Балдуин I, Калаун аль-Мансур, госпитальеры, иоанниты, тамплиеры, Тевтонский орден, Мальта, Гуго де Пейн, Венгрия, Пруссия, орден Калатравы, Александр III, Голубой замок, орден Сантьяго, Леон, Куэнка, Фердинанд III, орден Святого Лазаря, орден Монтегандио, Орден меча, Латвия, Ливония, Добжинский орден, Польша, орден Монтесы, Испания.

Salib yurishlari 1096-1270-yillarda G'arbiy Yevropa zodagonlari va katolik cherkovi tomonidan Yaqin Sharqqa (Suriya, Falastin, Shimoliy Afrika) qilingan bosqinchilik urushlari. Salib yurishlarining bosqinchilik mohiyati diniy shiorlar g'ayriddin (musulmonlarga) qarshi kurash va "Xudo qabri" hamda "Muqaddas yer" (Falastin)ni ozod qilish bilan niqoblangan. Salibchilar odatda kiyimlariga salib belgisini tikib olishgan. Yurishlarning nomi shundan kelib chiqqan. XI-asrning so'ngi choragida saljuqiylar tomonidan Vizantiyaning Kichik Osiyodagi yerlarini hamda diniy an'ana bo'yicha "Muqaddas shahar" bo'lgan. Quddusni egallab olishlari salibchilarning O'rta dengizning sharqidagi yerlarga bostirib kirishiga sabab bo'lgan. Vizantiya saljuqiylarga qarshi kurashish uchun G'arbdagi davlatlardan bir necha bor harbiy yordam so'ragan. Salib yurishlarining bevosita tashkilotchisi bo'lgan Rim papasi bundan foydalangan. Papalar katolik cherkovining



ta'sirini kuchaytirish va kengaytirish, pravoslav cherkovini Rimga bo'ysundirish maqsadida diniy fanatizmni avj oldirganlar. Salibchilarning ko'pchiligini qashshoqlashib qolgan ritsarlar, yirik sen'orlar hamda dehqonlar tashkil qilgan. Birinchi salib yurishi (1096-1099-yil) 1095-yil Klermonda papa Uruban II tomonidan e'lon qilingan. Yig'ilgan odamlarga quyidagicha murojat qilgan. "U yerga borgan har bir kishi, vafot etgan taqdirda, gunohlari kechiriladi. Ular kofirlarga qarshi mo'l-ko'l ne'matlar keltiradigan jangga chiqsinlar. U yerning daryolarida sut va asal oqadi. Ha oldin qaroqchi bo'lganlar, o'z birodarlari va qabilalariga qarshi kurashgan jangchilarga aylanadi. Bu yerda o'kinganlar, u yerda boy bo'ladi deyilgan. 1099-yil iyulda salibchilar saljuqiylardan Quddus (Iyerusalim) shahrini tortib olishgan va Quddus qirolligini tashkil etishgan.

Ikkinchi salib yurushi (1147-1149-yil) ga 1144-yil saljuqiylarning Edessa shahrini bosib olishlari bahona bo'lgan. Bu yurish mag'lubiyatga uchragan. Uchinchi salib yurishlari (1189-1192-yil) ning boshlanishiga 1187-yil Misr sultoni Salohiddin tomonidan Quddusning egallab olinishi sabab bo'lgan. Bu yurish ham barbod bo'lgan. To'rtinchi salib yurishi (1202-1204-yil) ni 1199-yil papa Inokentiy III uyishtirgan. Uning natijasida fransuz, nemis va italyan salibchilari dastlab Misrga mo'ljallangan yurishning yo'nalishini o'zgartirib, xristianlar yashaydigan shaharlari-Zadar (Dalmatsiya, 1202-yil noyabr) Konstantinopol (Vizantiya poytaxti, 1204-yil aprel)ni bosib olib, Lotin imperiyasini tuzishgan. Beshinchi (1217-1221) Oltinchi (1228-1229-yil) Yettinchi (1248-1254-yil) Sakkizinchi (1269-1270) To'qqizinchi (1271-1272-yil) salib yurishlari samarasiz bo'lgan. 1291-yilda Afrika shahrining musulmonlar qo'liga o'tishi natijasida salibchilar sharqdagi mulklarini butunlay yo'qotganlar.

Birinchi salib yurishi oxirida Levantda to'rtta xristian davlati tashkil topdi. Edessa grafligi Sharqda salibchilar tomonidan asos solingan birinchi davlatdir. U 1098-yilda Bulonlik Bolduin I tomonidan asos solingan. Quddus zabt etilgandan va



saltanat oʻrnatilgandan keyin u 1146-yilgacha mavjud boʻlgan. Ularning poytaxti Edessa shahri edi.

Quddus qirolligi birinchi salib yurishi tugagandan soʻng 1099-yilda Levantda paydo boʻlgan salibchilar davlatidir. Saltanat qariyb ikki yuz yil davom etdi, 1099-yildan 1291-yilgacha, oxirgi qolgan hududi Akko shahri bilan birga Mamluklar tomonidan bosib olingan. Antioxiya knyazligi hozirgi Suriya va Turkiya hududida I-salib yurishi davrida salibchilar tomonidan asos solingan xristian davlatlaridan ikkinchisi. Davlat 1098-yilda Tarentumlik Bogemond I tomonidan Antioxiyani bosib olgandan soʻng tashkil topgan. XII-asr boshlarida knyazlik Vizantiyaga 1119 yildan Quddus qirolligiga vassal qaramlikda edi. Knyazlik tarkibiga zamonaviy Suriyaning Oʻrta yer dengizi sohillari va Furot daryosi oraligʻida joylashgan hudud XII-asrning birinchi yarmida Kilkiya tekisligi ham kirgan. Antioxiya shahzodasi Edessa grafligining (1144-yilgacha) va 1163-yildan Tripoli grafligining syuzerini boʻlib Antioxiya 1207-yildan Bogemond IV tomonidan birlashtirilgan 1268-yilda knyazlik Mamluk sultoni Baybars tomonidan bosib olindi va oʻz faoliyatini toʻxtatadi ammo Antakiya shahzodasi unvoni Tripoli graflari tomonidan 1287-yilga qadar bosib olinmaguncha davom etdi.

Tripoli knyazligi Levantdan birinchi salib yurishidan soʻng tuzilgan salibchilarning toʻrtta xristian davlatining oxirgisi hisoblanadi. U Levantda hozirgi Tripolida, Livanning shimolida va Suriyaning gʻarbiy qismlarida tashkil etilgan boʻlib, aholisi nasroniylar, druzlar va musulmonlar 1109-yilda Frank salibchilar asosan janubiy fransuz qoʻshinlari mintaqani egallab olishganda Tuluzalik Bertran Quddus qiroli Bolduin I ning vassali sifatida Tripolini birinchi graf boʻldi. Oʻsha davrdan boshlab okrug boshqaruvini nafaqat meros, balki harbiy kuch, u yoki bu nomzodni qoʻllab-quvvatlash, muzokaralar kabi omillar bilan ham belgilanadi. 1289-yilda Tripoli grafligi oʻsha paytda sulton Qalaun al-Mansur boshchilik qilgan Mamluklar sultonligi zarbalari ostida qoldi.



Quddusda tuzilgan ilk orden gospitalyerlar, yoki Muqaddas Ioann ordeni sanaladi. Ba‘zan “Ionniylar ordeni” deb ham ataladi. Salib yurishlaridan oldin Quddusda gospital tashkil etilgan bo‘lib, unda ziyoratgoh kelgan xristianlarga yordam berilgan va davolangan. Lekin salib yurishlari natijasida gospital a‘zolari kuchli tashkilot tuzishga muvaffaq bo‘lgan. Bu voqea 1099-yilda sodir bo‘lgan. Salib yurishlari tugagach gospitalyerlar ordeni Kipr oroliga ko‘chib o‘tgan. Ko‘p o‘tmay buyuk magstr Giyom de Vellare Kiprni tark etib, Rodos oroliga ketishga qaror qilgan. XVI asr boshlarida turklarning yurishidan so‘ng orden Maltada qo‘nim topgan. Shundan Malta ordeni deb nom olgan.

Ikkinchi orden tampliyerlar yoki “Masix va Sulaymon ibodatxonasining yo‘qsil ritsarlari”- katoliklarning diniy-ritsarlik ordeni 1119-yilda Quddusda, Gugo de Peyn tomonidan asos solingan. Orden gospitalyerlardan so‘ng tuzilgan ikkinchi tashkilot bo‘lsa-da, maqomi jihatidan Falastin va Yevropada birinchi o‘rinda turgan. Tampliyerlar o‘z cherkovlari va qabristonlariga ega bo‘lish huquqlariga ega edi. Ularni cherkovdan chetlatib bo‘lmas, o‘zlari cherkov tomonidan qo‘yilgan har qanday cheklovni olib tashlashi mumkin edi.

Tevton ordeni- 1190-yilda tashkil topgan. To‘liq nomi “Quddusdagi Tevtonlik Muqaddas Mariya uyi ordenidir”. Orden Rim papasi va Muqaddas Rim imperiyasining imperatoriga bo‘ysungan. Bu tashkilot oldiniga Falastindagi kasal german ritsarlariga yordam berish va ularning himoya qilish bilan shug‘ullangan. Lekin 1211-yilda Vengriya qiroli Andrash II ritsarlarni qipchoqlarga qarshi kurashish uchun taklif etgach, Tevton ordeni Prussiyani istilo etgach, so‘ngra Boltiqbo‘yi qabilalar va rus yerlariga bosqinchilik urushlarini olib borgan.

Kalatrava ordeni XII asrdan tashkil etilgan Ispaniyaning birinchi ritsarlik va katolik ordeni edi. Orden Kastiliyadagi sisterskiy rohiblari tomonidan 1157-yilda asos tashkil etilgan va papa Aleksandr III tomonidan 1164-yilda rasman tasdiqlangan. Aynan nomi “Calatrava” Maviy qal‘asi nomidan kelib chiqqan bo‘lib, u orden Kastiliya yerlarida joylashgan va qirol tomonidan janglarda qatnashgan.



Santyogo ordeni 1160-yilda tashkil topgan ispaniyalik ritsarlik ordeni edi. Santyago so'zi Ispaniya homiysi sharafiga nomlangan. Buyurtmaning asosiy vazifasi ziyoratchilarning Havoriy Yoqubning xonalariga boradigan yo'lini himoya qilish edi. Buyurtma bir vaqtning o'zida ikkita shaharda paydo bo'lgan, Leon va Kuenka. Ushbu ikki shahar yerlari bir-biri bilan hukmron ta'sirini o'z qo'llariga oldi. Ammo Kastiliya qiroli tomonidan birlashtirilgandan keyin Ferdinand III, muammoni muvafiqiyatli hal qildi. Buyurtma Kuenka shahriga o'tkaziladi.

Avliyo Lazer ordeni 1098-yilda salibchilar va gospitalistlar ta'sirida Falastinda paydo bo'lgan. Dastlab jamoa tashrif buyuruvchilar uchun shifoxona edi. Uning xonalarida moxov bilan kasallangan ritsarlar qabul qilindi. Keyinchalik u kuchli, yarim harbiylashtirilgan harbiy tuzumga aylanadi. Unda ruhiy qarorlar uchun ma'sul bo'lgan yunon mafkurasi mavjud edi. Lazarning ramzi oq fonda yashil xoch edi.

Montegaudio ordeni graf Rodrigo Alvares tomonidan 1172-yilda asos solingan ispaniyalik ritsarlik ordeni. Ushbu asoschi Santyogo ordeni a'zosi edi. Montegaudio nomini ishtirokchilar salibchilar Quddusni kashf etgan tepalik sharafiga berishgan. Shunday qilib bu tepalikda qal'a qurilgan va tez orada tartibning o'zi shakllanganda 1180 jamoa cherkov rahbariyati va katolik papasini rasman tan oldi. Aleksandr III Montegaudio ramzi yarim bo'yalgan qizil va oq xoch edi. U jihozlarning barcha atributlariga, shu jumladan oq moddadan tikilgan kiyimlar ham kiyilgan. Jamiyatning barcha a'zolari begona hayot tarzini olib bordilar. Ularning tartiblari sistersiylarnikiga o'xshardi.

Qilich ordeni 1202-yilda tashkil topgan nemis, katolik mafkurasiga ega ritsar ordeni edi rohib Teodorik U shuningdek yepiskop o'rinbosari sifatida ham xizmat qilgan Albert Buxoeveden Livoniyada vaz qilgan. Latviyadan bu tartib katolik cherkovi tomonidan rasman tasdiqlangan. Asosiy ramziy naqsh oq fonda qizil qilich ustiga chizilgan qizil xoch edi.



Dobriynskiy ordeni Polsha, Prussiya bosqinlariga qarshi mudofa sifatida tashkil etilgan. Uning asoschilari Tevton ordenining prototipini yaratmoqchi bo'lgan polshalik knyazlar va yepiskoplardir. 1222-yil uning yaratilishining muhim sanasi. Jamiyatning ramziyligi qilichbozlarga juda o'xshash edi. Muntazam va tartib-intizom aynan ular va Templar ritsarlari kabi edi. Tasvirlarda xuddi shu qizil qilich ko'rinardi, lekin faqat xoch joyiga qizil yulduz qo'llanilgan. U Isoning g'ayriyahudiylarga aylanishini tasvirlab berdi.

Montesa ordeni XIV asrda tashkil topgan ispan ritsarlari ordeni edi. U 1317-yilda Aragonda tashkil etilgan. U 1317-yilda Aragonda tashkil etilgan. U Templar mafkurasini davom ettiradi va salibchilarning an'alarini taxminan kuzatdi. Ispaniya toji janubdan mavrlardan himoyaga muhtoj edi, shuning uchun Templars izdoshlarini qo'llab-quvvatlashdan doimo xursand edi. Ularning qo'llab-quvvatlashi XIX asrgacha davom etadi undan so'ng jamoaning barcha mulklari Ispaniya tomonidan musodara qilinadi

Xulosa qilib aytganda salib yurishlari o'rta asrlar tarixida diniy shiorlar ostida boshlangan, ammo mazmunan siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yurishlar Yevropa va Sharq o'rtasidagi munosabatlarni keskinlashtiribgina qolmay, madaniy, harbiy va savdo aloqalarining rivojlanishiga ham turtki berdi. Ayniqsa Yaqin Sharq hududlarida uzoq davom etgan qurolli to'qnashuvlar mintaqaning siyosiy xaritasini o'zgartirib, mahalliy aholi hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Umuman olganda salib yurishlari va diniy ritsarlik ordenlari o'rta asrlar tarixini tushinishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, dinning siyosat va jamiyat hayotidagi rolini ochib beruvchi yorqin misoli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Setton K "Salib yurishlari tarixi"
2. B. Ahmedov "Jahon tarixi" Toshkent 2007



3. Tursunov N “Jahon tarixi” Termiz 2022
4. Shamsutdinov.R “Jahon tarixi” Toshkent 2009
5. Djurayev I. N. MARKAZIY OSIYODA QADIMGI DAVRDA KO ‘CHMANCHI VA O ‘TROQ XALQLARNING SIYOSIY, IQTISODIY HAMDA MADANIY MUNOSABATLARI //CONFERENCE OF INNOVATIVE HORIZONS IN SCIENCE & ENGINEERING. – 2025. – T. 1. – №. 2. – C. 145-152.
6. Djurayev I. N. YEVROOSIYO CHORVADOR QABILALARINING FARG ‘ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI //CONFERENCE OF INNOVATIVE HORIZONS IN SCIENCE & ENGINEERING. – 2025. – T. 1. – №. 2. – C. 138-144.